

TEZIS

O‘ZBEKISTON RESPUBLIKASI

OLIY TA'LIM, FAN VA INNOVATSIYALAR VAZIRLIGI

BUXORO DAVLAT PEDAGOGIKA INSTITUTI

O‘zbek tili va adabiyoti mutaxassisligi 2 -bosqich magistranti

Qodirova Nilufarning "Nazar Eshonqul ijojida modern

hikoyalar talqini" mavzusida

Har bir davr o‘zining yangi qarashlari va tamoyillarini yuzaga keltirishi tabiiy hol. Modern ruhidagi asarlarning yuzaga kelishi va birmuncha jonlanishi shuning mahsulidir. To‘g‘ri, modernizm umuman olganda adabiyotda yangi yo‘nalish emas. U g‘arb adabiyotida allaqachondan beri mavjud. Lekin u o‘zbek adabiyotida yangi tamoyildir. Bizning adabiyotga uning kech kirib kelishining ob‘ektiv va sub‘ektiv sabablari bor. Ob‘ektiv sababi shundaki, modern ruhidagi asarlar zahirida kuchli g‘ayritabiiy psixologik holat yotishi bilan birga, ramziy voqea- hodisa tasvirida, ramziy manzaralarda g‘ayritabiiy olam ifodasida o‘zi yashab turgan jamiyat illatlarini kuchli tanqid ostiga olishi va fosh qilish xarakteri mavjudligi, shuningdek, uning yuzagakelish va urchishiga sababchi shaxslarning qiyofasini shafqatsiz ochib tashlash xususiyatiga egaligi. Ma‘lumki, totalitar jamiyat bunga yo‘l qo‘ymasdi. Sub‘ektiv sabab esa, modernizmning xususiyatini, uning yo‘nalishi va mohiyatini o‘zlashtirgan ijodkorning yetishib chiqmaganligi. Buning sababi tuzum siyosati va mafkurasiga borib taqaladi. Bizning adabiyotda modernizm mustaqillik arafasida shakllana boshladi. Mustaqillikdan so‘ng ancha rivojlandi, turli xil bahslarga sabab bo‘ldi. Nasrda modernizm yo‘lini boshlab bergan va eng ko‘p asarlar yozgan Nazar Eshonquldir.

Demak, hikoya o'zi bosib o'tgan yo'llari, shuningdek, o'zi yashayotgan jamiyat odamlari qismati haqida mulohaza yuritishga da'vat etadi. Ma'lumki, modern adabiyotining muhim xususiyati, muallif asari orqali aytmoqchi bo'lgan fikrini, ilgari surmoqchi bo'lgan g'oyasini ramzlarga yuklaydi. Sabab, muammo asar qahramoniga qanchalik jumboq, boshqotirma bo'lsa, kitobxonga ham shunday bo'ladi. Natijada kitobxon bilan qahramon birday o'yga, mulohazaga beriladi. Lekin muammo yechimi topilmaydi. Kitobxon endi har bir jumlaning tasvirini sinchiklab, mushohada qilib o'qiy boshlaydi. Va nihoyat, asar finalga kelgach, yechimni topganday bo'ladi. Ha, topganday! Chunki u o'tmish haqidagi o'zbek hikoyalari kabi bitta g'oya bilan cheklanmaydi. U ko'p fikrli va ko'p qatlamiydir. Bu fikrga "Tobut" hikoyasi yaqqol misol bo'ladi. Hikoya uchinchi shaxs tilidan olib boriladi. Uning sababi noaniq, o'lim ko'paygan shahargaketayotgan tekshiruv guruhiga qo'shib qo'yishadi. U bu holatdan o'zi hayron "...me'morchilikning o'latga qanday aloqasi bor (bizga hali siri aniqlanmagan o'lat deb tushuntirishdi), to'g'risi, hozirgacha aqlim yetmaydi",- deydi. Qahramondek, kitobxon o'ziga savol beradi. Shaharga yetib kelgach, u yerda avval hayot yaxshi bo'lganini o'lim besh oycha burun boshlanganini, kun sayin ko'payganini, vrachlar hech qanday xulosaga kelishmaganini, chunki yuqumli kasallikdan darak beradigan biron alomat topisha olmaganligini aytishadi. Yana jumboq. Shahardan esa badbo'y hidkelardi. Shaharga kelganlar o'latni xuddi mana shu ufunotdan izlash kerak, deyishganda shahar boshlig'i "... hid shahar qurilgandan beri bor. O'lim esa besh oy oldin paydo bo'ldi",- deydi.

O'limning sababini kelgan tekshiruv guruhi ham topa olmadi. Professorning hafsalasi pir bo'lib, loqaydlashib qoldi. Endi u bahslarga qo'shilmas edi. Bir kuni kimyogar hikoya qahramoniga professor sizga mana bu narsani berib yubordi, kecha bir telba o'lgan ekan, o'shaningcho'ntagidan chiqibdi",- deb sarg'ayib ketgan xarita nusxa qog'oz chiqarib uzatdi. Telba shahar loyihasini tuzgan me'mor edi. U shoshib qog'ozni ochdi. Avvaliga hechnarsa tushunmadi. Uch- to'rt marta aylantirib, sinchiklab qaragach, hayrat va dahshatdan nafasi ichiga tushib ketdi. Chunki u o'latning tub sababini anglagan edi. Chizma shu shaharning loyihasi bo'lib, shahar

tobut shaklida qurilgan edi. Bu loyihada yaqqol ko‘rinib turardi.

Demak, shahar aholisining hammasi tobut ichida yashashgan, jumladan, tekshiruvga kelgan odamlar ham uning ichida kezishgan.

Xo‘sh, yozuvchi nima demoqchi?! Agar har bir jumlarlar zaminida yashiringan ramzlarga e‘tibor berilsa, yozuvchi niyati oydinlashadi.

Shahar loyihasini chizgan me‘mor shunday deydi: “Dunyoda eng ulkan va odamzod hali xayoliga keltirmagan shahar quramiz”,-deb xitob qilardi. Bu kommunizm qurish g‘oyasini eslatmaydimi? Aynan o‘zi. Bu sovet tuzumining birdan bir g‘oyasi edi. Unga intilgan sari yomonlasha boshladi. Keyinchalik esa butun dunyoda sotsializm qurish harakati boshlandi. Buning natijasi ayanchli bo‘ldi. Bu chirkin g‘oya, chirkin falsafa edi. Demak, shahardan kelayotgan badbo‘y hid bu totalitar tuzum siyosati, mafkurasidir. Chuqur o‘ylanmagan, dialektik qonunga asoslanmay qurilgan, valyuntaristik siyosat olib borilgan tuzumning kelajagi yo‘qdir. Bunday tuzum o‘zini o‘zi yemirib boradi. Shunday ham bo‘ldi. “Tobut” bu kechagi sotsialistik tuzumdur. “To‘zon” hikoyasining zamiridagi yozuvchi kitobxonga yetkazmoqchi bo‘lgan fikrni anglab olish qiyin. Hikoya shunday boshlanadi: “Yaqinda bir tanishim bir to‘da qo‘lyozma ko‘tarib, ” Shu qo‘lyozmalarni bir ko‘zdan kechirsangiz. Muallif ikki oy burun qazo qildi. Juda yosh edi, to‘plam qilishga ham ulgurmagan ekan. Nimadan o‘lganini ham aniqlashgancha yo‘q” (132-bet).

U ikki oydan so‘ng qo‘lyozmani o‘qiy boshlaydi. Oldin ham marhumni ikki-uchta hikoyasini o‘qiganini eslaydi. Bu eslash marhum xususida taassurot uyg‘otadi. U haqida shunday deydi: “Muallif tushkunlik, umidsizlik, ikkilanish, jur‘atsiz, hijolat, xavotir va mavhumliklar aro o‘ziga shunday yo‘l ochib olgandiki, uni endi bu yo‘ldan surib chiqarish mumkin emasday bo‘lib tuyulgandi menga ” (132-bet).

Qo‘lyozma haqida ham juda ko‘tarinki fikr bildiradi, ya‘ni “majozlari, manzaralari va ramzlari mening ko‘nglimni lopillab yoritib yuborgan”,-deydi. Bu ramzlar quyidagilardir: “... ko‘chalarda o‘lja izlab, uvillab yurgan o‘lim, qabrlari ochilib yotgan mozoriston oxiri jarlik bilan tugaydigan yo‘l, qaygadir shoshib ketishayotgan boshsiz odamlar, ko‘zlari chippa ko‘r bobolari izidan oq qasrni izlab

borishayotgan bolalar, faqat qo‘zichoqtug‘adigan ayol, egasiz va qarovsiz daydib yurgan otlar, umr bo‘yi hech kim sotib olmaydigan hanjar yasab o‘tirgan usta, donishmandning boshini koptok qilib tepishayotgan olomon haqida so‘z borar va ular odamning ko‘nglida achchiq xo‘rsiniq uyg‘otar edi” (133-bet). Ko‘rinibturibdiki, har bir jumla ramziylikka ega. Buning tagiga yetish uchun mushohada va yaqin o‘ttimishni ko‘z oldiga keltirmoq lozim. Ko‘chalarda o‘lja izlab, uvillab yurgan o‘lim bu— kishini o‘zligidan mahrum etgan, ma’naviy o‘ldirgan totalitar tuzum siyosati, mafkurasi, “qabrlari ochilib yotgan mozor” – milliy urf-odat, diniy e’tiqoddan judolikdan qalbning vayron bo‘lishi. Jarlik bilan tugaydigan yo‘l-tuzumning olib borayotgan yo‘lining nihoyasi tanazzul. Qaygadir shoshib ketayotgan boshsiz odamlar – fikrlashdan mahrum, o‘z fikriga ega bo‘lmagan omma, oq qasr esa adolat, najot, farovonlik ramzi. Unga muyassar bo‘lishga bobolar intilgan edi. Endi yangi avlod intilyapti. Ma’lumki, faqat intilish bilan unga erishib bo‘lmaydi. Qo‘zichoq tug‘adigan ayol — mute‘lik ruhiyatini yuzaga keltirgan mashina — jamiyat. Otlar esa shijoatkorlik ramzi, ularning daydib yurishi bu tuyg‘uning so‘nishi, ya’ni qanotning qayrilishi. Hanjar yasayotgan usta ahvolidaesha – xalq amaliy san’atiga e’tiborsizlik, uni so‘ndirish. Yaroqsiz bir matohga aylantirish, millatni qiyofasizlantirish, milliy qadriyatlaridan mahrum qilishdir. Donishmandga bo‘lgan munosabatda ma’rifatsizlik ifodasi. Buni anglash kechagi tuzumni butun qiyofasi bilan ko‘z oldiga keltirmoqlikdir.

Ma’lumki, insoniylikka zid bo‘lgan illatlarning vujudga kelishiga faqat jamiyat, tuzum aybdor emas, balki insonlarning o‘zi ham sababchidir. Hikoyada bu haqiqat ramzda emas, haqiqiyhayotiy tasvirda o‘z ifodasini topgan. Qo‘lyozmada shunday yoziladi: “Bugun yozuvchi A. bilan uchrashuv bo‘ldi, zal odamga to‘lib ketdi: “Taniqli yozuvchilar A.ni... ustoz, deb maqtadi... kasalligim uchun bugun meni ishdan bo‘shatishdi. Miyamda o‘zgarish bor ekan”.Qo‘lyozmada o‘z davri uchun dasturamal bo‘lgan kitob haqida yoziladi. U haqida shunday deyiladi: “Kitobda aytarli hech voqea yo‘q, til ham zanglagan kosov kabi quruq, joziba va nafosatdan xoli, dag‘dag‘a va vahm to‘la manzaralar joy olgan, ko‘rimsiz, aytish mumkinki, g‘oyatda dag‘allik bilan

yozilgan zil-zambil jumladan iborat edi”.

Bu kitob o’sha davrda barcha bilishi zarur bo’lgan, lekin shuurga shuur qo’shish o’rniga miyani g’alvirak qiladigan “KPSS tarixi” va “Ilmiy kommunizm” darsliklaridir. Mazkur kitoblarnimiyaxo’r desa ham bo’ladi. Chunki u ongdagi ilmiy fikrlarni, ilm bazasini siqib chiqaradi. Oqibatda miya fikrlash o’rniga unda to’zon o’ynaydi. Bu to’zon ko’p narsani domiga tortadi. Undan fikrlovchi odamning omon qolishi dushvor. Qo’lyozma muallifi ham qololmagan.

“O’lik mavsum” hikoyasi, dastlab, an’anaviy usulda yozilganday t

Xulosa o’rnida aytadigan bo’lsak ,modern hikoyalarni o’zbek adabiyotida hech kim Nazar Eshonqulchalik maromiga yetkaza olmagan.

Adib har bir so’zdan,har bir detaldan shunchalar mohirona foydalanadiki,asarni o’qiboq inson o’zini huddi shu muhitga tushgandek his qiladi.Nazar Eshonqulning modern hikoyalari inson ruhiyati, falsafiy mushohadalar va zamonaviy jamiyat muammolarini o’ziga xos badiiy uslubda aks ettiradi. U ichki monolog, ong oqimi, vaqt va makon nisbatining buzilishi kabi modernistik texnikalarni qo’llab, o’quvchini chuqur o’yga cho’mdiradi. Hikoyalarida ramz va metaforalarga boy tasvirlar orqali insonning ichki olamini yoritadi. Uning asarlari o’ziga xos poetik ruhi bilan ajralib turadi va zamonaviy o’zbek adabiyotining muhim namunalari hisoblanadi.

Foydalanilgan Adabiyotlar:

1. A.Otaboyev. Shu kunlar nafasi. “O’zbekiston adabiyoti va san’ati”, 1990 yil, 23 fevral.
2. A.Mamarasulov. N.Eshonqul hikoyalari haqida. “O’zb. adab. va san’ati”, 1996 yil, 29 mart.
3. Q.Rahmon. Ruh ramzga ko’chganda. “Vatan”, 1993 yil, 22 sentyabr.
4. Dovurboyeva N. “Jajman”ning jilvalari. “Yoshlik”, 1991 yil, 5-son.
5. B.Ro’zimammedov. Nasrimizga befarq qaramayapmizmi?, o’z AS, 2001 yil. 7 dekabr.
6. Nazar Eshonqul. Maymun yetaklagan odam. T.,”Yangi asr avlodi”, 2004 yil.